

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHI PEDAGOGLARINING
TARBIYALANUVCHILAR BILAN MULOQOTNI TASHKIL ETISH USULLARI VA
MULOQOTDA TARBIYAVIY JARAYON TAMOYILLARI**

Ernazarova Shiyrinay Jumamuratovna

Nókis rayonı Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriw bólmine qaraslı 19-sanlı mektep
ámeliyatshi psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512141>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti samarali bo'lishi uchun amalda qo'llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo'limgan pedagogik ta'sir etuvchi usullar; ishonchini qozonish usuli, ta'sir etish va ma'qullah usuli haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda o'quvchilar bilan do'stona munosabat, muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatları bilan bog'lab olib borish, muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o'rni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Do'stona muloqot, ishonch, ma'naviy-tarbiyaviy, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, ta'lif-tarbiyaviy, temperament, ijtimoiy muhit, odob normalari, qoidalari.

Аннотация. В статье представлен ряд простых педагогических приемов, которые используются на практике для повышения эффективности общения педагога с учениками; Предоставляется информация о том, как завоевать доверие, влияние и одобрение. В то же время рассматриваются такие вопросы, как построение дружеских отношений со студентами, связь общения с законами общественной жизни, роль труда в организации общения.

Ключевые слова: Дружеское общение, доверие, духовно-просветительский, воспитатель, образованный, образовательно-воспитательный, темперамент, социальная среда, этикет, правила.

Abstract. This article provides information on a number of simple pedagogical methods of influence that are used in practice to ensure effective communication between educators and students; methods of gaining trust, methods of influencing and approving. At the same time, it covers the role of friendly relations with students, linking communication with the laws of social life, and the role of labor activity in organizing communication.

Keywords: Friendly communication, trust, spiritual and educational, educator, student, educational and educational, temperament, social environment, norms of etiquette, rules.

Tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti samarali bo‘lishi uchun suhbатdoshni o‘ziga moyil qilib olish zarur. O‘zaro moyillikka erishish uchun amalda qo‘llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo‘lмаган pedagogik ta’sir etuvchi usullardan foydalilanadi. Ularning eng muhimlari tarbiyalanuvchi *ishonchini qozonish hamda ta’sir etish va ma’qullah usullaridir*.

-ishonchini qozonish usuli tarbiyalanuvchilar bilan muloqot asosida ta’sir ko‘rsatishning yuqori samara beradigan usulidir. U tarbiyalanuvchi ongiga qaratilgan bo‘lib, idrok qilish orqali o‘quvchilar ishonchini qozonishni va ularning rozilagini nazarda tutadi.

Ishonchini qozonish dalillash, isbotlash orqali olib boriladi. Ishonchini qozonish usuli yordamida tarbiyachi tarbiyachilarning dunyoqarashini shakllantiradi, ularda o‘z-o‘zini tarbiyalashga nisbatan javobgarlik hissini oshiradi. Ishonchini qozonish usuli nafaqat tarbiyachi bilan muloqot jarayonida, balki ta’limtarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham tarbiyalanuvchiga ta’sir qiladi. Tarbiyalanuvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. Tarbiyachi ishontirish bilan tarbiyalanuvchida ijobiy xislatlarni uyg‘otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir tarbiyalanuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Tarbiyalanuvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy xislatlari har xil bo‘lgani uchun bir tarbiyalanuvchiga nisbatan foydali bo‘lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir tarbiyalanuvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini tarbiyachi muntazam o‘rganib borishi, tarbiyalanuvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiyligi tiplarini o‘rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyatni, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyatini tizimiga bog‘liq bo‘lib, tarbiyachi tarbiyalanuvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart. Tarbiyalanuvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati tarbiyalanuvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o‘z-o‘zini tarbiyalashidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash tarbiyalanuvchining o‘zini o‘zi idora qilishi, o‘zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir.

Tarbiyalanuvchining yashirin qobiliyatlarini o‘z-o‘ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi.

Tarbiyalanuvchi uchun o‘z o‘zini baholash qiyin jarayon. Tarbiyalanuvchi ta’limtarbiya berayotgan tarbiyalanuvchilarga ishonch bilan ergashib, o‘ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o‘z burchini to‘g‘ri tushunadi, bilish va o‘rganishga qiziqishi kuchayadi, o‘z-o‘zini har tomonlama takomillashtirishga

intiladi, o‘ziga atrof muhitdagi o‘rtoqlari ko‘zi bilan xolisona baho beradi, o‘ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo‘ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo‘qotish va bartaraf etishga intiladi.

– *ta’sir etish va ma’qullash usuli* muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbатdoshning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma’qullattirish vositasi sifatida o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida tarbiyachi tarbiyalanuvchi ruhiyatiga va xulqatvoriga tarbiyaviy maqsadni ko‘zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyalanuvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda axloqiy-irodaviy xislatlarni faol takomillashtiradi. Tarbiyachi xushmuomalaligi, muosharat odobining cheksiz qudrati bilan tarbiyalanuvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta’sir etadi, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining yaqindan muloqotda bo‘lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma’qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko‘zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi etakchi *tamoyillaridan* o‘rinli foydalanishi lozim: Aslida muloqotdan maqsad tarbiyalanuvchilar bilan do‘stona munosabatni ro‘yogda chiqarishdir. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish tarbiyachining insonparvarlik tuyg‘ularidan kelib chiqadi. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muxabbat ko‘rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg‘usi ularning kuchiga kuch qo‘sadi, o‘z imkoniyatlariga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatniadolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do‘stona muloqot tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo‘ladigan muomala odobi tarbiyachilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Tarbiyachining o‘ziga va o‘z kasbiga, o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘z faoliyatini endigina boshlagan tarbiyachilar ayniqsa, har bir tarbiyalanuvchining kelajagiga umid bilan qarashlari, unga individual yondashishga harakat qilishlari, tarbiyaviy jazolash usullarini tartibsiz qo‘llamasliklari, o‘quvchilar jamoasi oldiga istiqbolli tarbiyaviy maqsadlarni qo‘yishga intilishlari lozim. Yosh tarbiyachilar ma’lum bir pedagogik mahorat sirlarini egallahga intilmasalar, o‘z fanidan bilimlari sayoz bo‘lsa, shaxslararo munosabatlarga ijodiy yondashmasalar, kommunikativ qobiliyatini takomillashtirib bormasalar,

tarbiyalanuvchilar uni asta - sekin tan olmay qo'yishadi. Natijada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar muloqotida tuzatib bo'lmash xatoliklar paydo bo'lishi mumkin. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatları ham muntazam ta'sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo'lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi.

Ayniqsa, oila, maktab, do'stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o'z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta'sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Oila muhiti tarbiyalanuvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. SHuning uchun tarbiyachi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, tarbiyalanuvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo'lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak.

Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, tarbiyalanuvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi. Ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi mehnat faoliyati bilan o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat tarbiyalanuvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. SHunday ekan, tarbiyachi tarbiyalanuvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muxabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim. Tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar. *Tarbiyalanuvchi eng yaxshi insoniy fazilatlarni, axloqodobni, muloqot madaniyatini asosan tarbiyachitimsolida anglab olishini unutmaslik kerak.* Tarbiyalanuvchilar jamoasida tarbiyachilar bilan o'zaro munosabatlar insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Ular odatda ikki xil bo'lib biri rasmiy, ikkinchisi norasmiy muomala deyiladi. Rasmiy muomala munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, direktiv hujjatlariga asoslanadi.

Norasmiy muomala pedagogik etika va estetikaning qonuniyatlariga va tarbiyachi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir a'zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi.

Muloqot olobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari va qoidalari, talablari hamda tarbiyachilar jamoasining fikri asosida boshqariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sodn Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-sodn
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet
4. AZ Baxodirovna FORMATION OF A SPIRITUAL WORLDVIEW OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE MEANS OF GENRES OF FOLK ORAL CREATIVITY INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN 2023
5. A.Z.Baxodirovna “Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati”, Science and innovation 3 (special issue 31), 34-37 2024y
6. AZ Baxodirovna “Sharq matematik olimlarining asarlarida arifmetikaning rivojlanishi”, Science and innovation 3 (special issue 31), 455-460b 2024y
7. P.F.Миннурлина, А.Р Нуриева, З.Б.Азизова “Подготовка будущих воспитателей в полилингвальном образовательном пространстве” Science and innovation 3 (special issue 31), 88-91 2024y
8. AZ Bahodirovna BO’LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIK ASOSLARI Tafakkur manzili 4, 59-67 2023
9. Muminova, G. "HONORARY WOMEN IN UZBEK ART." Science and Innovation 1.6 (2022): 244-247.
10. Irmatova Ma’mura Djuraevna PERIOD OF KINDERGARTEN AGE - THE BEGINNING STEPS OF EDUCATION, THE FORMATION OF SOCIALLY NECESSARY CHARACTERIZATIONS IN A PERSON IJSSIR, Vol. 11, No. 06. June 2022 41-44 11.

11. Kadirova, Dildora Nadjatbekovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AT THE CENTERS FOR THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL." Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal 1.3 (2024): 86-92.